

INSON KAPITALI: IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MUNOSABATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11399542>

Ermатов Musojalil Komilovich

Alfraganus universiteti “Moliya” kafedrası dosenti v.b.

Iqtisod fanlari nomzodi

Annatosiya: *Tezısa inson kapitalining mohiyati, dunyo bozorıda tutgan o’rni, mamlakat va mintaqa mehnat resurslarining globallasuvi jarayonidagi mavjud muammolari tahlil qilingan. Shaxs xususiyati va unig katigorialari o’ziga xos jihatlari va turlari to’g’risidagi tadqiqotlari olib borilgan. Inson kapitalining geografik joylashuvi va u to’g’risidagi nazariyalar bayon etilgan.*

Kalit so’zlar: *Global, mikro, makro, meto, mezo, endo, giosiyosat, oy, mars, robot, inson, kapital, mohiyat, miqdor, sifat, munosabat, joy, vaqt, qoida.*

Dunyo mehnat bozoridagi raqobat rivojlanib bormoqda. Natijada micro, makro va metoiqtisodiyot o’rtasidagi xalqaro aloqalari ko’lami barqaror, har tomonlama o’zaro iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishiga olib keldi. Bir makonda joylashgan davlatlar xo’jalik yurituvchi sub’ektlarining manfaatli internasianallasuviga olib kelmoqda. Shuning barobarida mehnat resurslarining globallasuviga, inson kapitalining geografik joylashuvi halqaro maydonda bir mamlakatdan ikkinchi davlatga, qit’adan er yuzining boshqa qirtog’lariga ko’chib, joylashuviga olib kelmoqda.

Bunday makonda inson mehnatiga talab va taklif qonuni ostida tabiiy rusurslardan foydalanish ortib borishi insonning ongli mehnatiga talab ortadi, natijada bir makondagi mehnat kapitali mehnatga haq to’lash yuqori bo’lgan ikkinchi makonga o’z taklifini beradi va inson kapitali ko’chib o’tadi. Bu holat bozor iqtisodiyotiga o’tish davrini kechirayotgan davlatlarda mehnat resurslari o’rtasidagi raqobotni keskin o’zgartiradi. Natijada, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardagi giosiyosiy vaziyat, bozor iqtisodiyotiga o’tayotgan davlatlar ichki ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy siyosatini izdan chiqaradi. Demak, inson kapitali ko’chib yurishida muammolar ham talaygina.

A.Qodiriy so’zi bilan aytganda “Moziyg’a qaytib ish ko’rish xayirliq, deyдилar[1]. Biz ham ushbu qoidaga amal qilamiz, o’tmishda odamni tarbiyalash va

unga ta'lim berish uchun sarflangan mablag'lar ishlab chiqarishga aloqasi yo'q xarajatlar hisoblangan. Sababi, quldorchilik jamiyatining asorat-aqidalari bunga yo'l qo'ymas edi. Ishchi sinfi rohibining mulki hisoblangan.

Antik davrning faylasufi Arostu¹ o'zining «Kategoriyalar» asarida, inson ob'ektiv reallikning in'ikosi deya talqin qilgan. Saxs falsafasining 10 ta kategoriyasi to'g'risida ma'lumot yozgan. Ular: mohiyat, miqdor, sifat, munosabat, joy, vaqt, qoida, holat, xatti-harakat va qiynalishdir.[2].

Ushbu kategoriyalar to'g'risida Al-Farobiy va Ibn Sino tomonidan ynada rivojlantirilgan. Ular Islom falsafasi asosida 6 ta kategoriyani bir-biridan farqini asosladi. Bular: borliq (mohiyat), sifat, miqdor, harakat (o'zgarish), munosabat, egalik kabi kategoriyalardir. [3]

Mazkur ta'limot ko'ra, har bir inson o'z hayoti faoliyatida o'zigacha shakllangan yuqoridagi kategoriyalar yordamida shakllanadi. Mazkur kategoriyalar metodologik va dunyoqarash mazmuniga ega bo'lib, insonga borliqning mohiyatini, insonning borliqda tutgan o'rnini to'g'ri bilib olishiga yordam beradi.

Ikki falsafiy tushunchlarni jamlanganda quyidagi inson kapitali inkosi shakllanadi.



1-rasm. Inson kapitalining tarkibiy kotegoriyalari²

¹ Eramizdan avvalgi 323-335 yilar

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Chizmada: Yuqoridagi uchta kategoriyalar ong, imkoniyat, bilish omillari Arastuning tushunchasi hisoblanadi. Unda ongning rivojlanishi avvalo oilada, keyinchalik jamiyatda toplanib boradi. Uning rivojlanishi imkoniyat va bilish kategoriyalari bilan bog'liq holda rivojlanadi. Agar inson o'z ilmini imkon darajasida rivojlantirib, ya'ni moliyaviy kapital sarf etib, iqtisodiy-ijtimoiy bilimlarini takomillashtirib borsa, uning dunyo qarashi, intellektual solohiyati rivojlanib boradi. Uning aksi esa, teskari rivojlanish, ya'ni quyi tabaqa tarkibiga yo'l oladi.

Chizmaning quyida qolgan, oltita kategoriya Al-Forobiy, Abu Ali Ibn Sino tomonidan rivojlantirilgan shakli. Undagi inson kapitali omillari bo'lib, ular: Borliq, sifat, miqdor, munosabat, egalik va xarakat inson kapitalining markaziy qismi hisoblanadi.

Ushbu omillar, insonning yashashi uchun yaratilgan sharoit, undagi borliq makonini anglatadi, ilm o'rganish, bilim olishi uchun ushbu kategoriyalar inson tafakkurini rivojlanishida markaziy o'rinni egallaydi. Agar odamning hayot tarzi yaxshilanib, bo'sh vaqti bo'lsa, kitob o'qish, o'z ustida ishlash va madaniy dam olishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Natijada, insonning jamiyatdagi xarakati miqdor darajasidan sifat darajasiga o'tadi. Jamiyatdagi kishilarga nisbatan yaxshilikka etaklash munosabati shakllanadi. Har bir xarakati go'zallik tarovvatini egallash uchun intiladi.

Jahon iqtisodiyotida sanoatning rivojlanishi qo'l mehnatidan ko'ra aqliy mehnat samaradorligi yuqori ekanligini isbotladi. Unda ishlab chiqarish takomillashib borishi, shaxsning mehnat omili ishlab chiqarish sohasida asosiy kapital darajasiga ko'tarildi.

Aslida, shaxsning ish mehnati darajasi jamiyatdagi ta'lim va turmush darajasini oshirish uchun sarflangan xarajatlar miqdoriga teng. Odam bolasining ta'lim-tarbiyasi, sog'lig'i, ishbilarmonligi, madaniyati, san'at va boshqa inson uchun zaruriy sohalarga sarflangan moliyaviy mablaglar natijasida inson ongi, shuuri va ta'lim-tarbiyasi shakllanishiga asos bo'ladi. Natijada ongli individning mehnat qilish saviyasi, sifati va qiymat darajasi yuksalib boradi. Mazkur omillar

inson kapitalining shakllanishida muhim o'rin tutuvchi alohida shaxslar timsolida mavjud bo'lgan xolatdir. Boshqa kapital turlaridan farqli ravishda inson kapitali u yoki bu konkret shaxs bilan bog'liq bo'lib, u avvalo shaxsiy mulkdir va u kapital egasining inon-ixtiyoriga ko'ra sarflangan ma'lum moliyaviy mablag'larining inkosi hisoblanadi.

Inson kapitali – halq xo'jaligi tarmoqlari tarkibidagi kapitallarning gultojisi. Sababi, u ijtimoiy hayot, iqtisodiy munosabat, shuningdek, jamiyat va oila taraqqiyoti rivojlanishining markaziy omili hisoblanadi. Unda intensiv ishchi kuchining bilimi va malakalisi intellektual qiymatiga xos yaratuvchanlik hissiyotlari mujassamlashgan. Inson o'z shururi bilan ishlab chiqaruvchi kuchlar va mehnat vositalarining boshqaruvchisi, atrof-muhit asrab avaylashdagi tadbirkori va umumiy jamiyat faolligining tarkibiy yig'lindisiga teng. Shu bois, inson kapitalining mohiyatini ochib berish va uni ta'riflashda beqiyos munozaralarga sabab bo'ladi.

Inson ilmiga bo'lgan xarajat eng samarali kapital kiritishning ob'ekti bo'lib, bu kapital bilim va mahoratni oshirishga xizmat qilishi, kelgusida yuqori samara keltirishi maqsadi ko'zlangan. Sababi, inson kapitali inson salohiyatini hamda insonga investisiyalarning iqtisodiy xususiyatlaridan biri sifatida tushunilmoqda.

Ushbu masala echimini bartaraf etilishida mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida markaziy o'rinni egallaydi. Yaqinda qabul qilingan O'zbekiston – 2030 strategiyasida ijtimoiy sohalarni rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu bois, 2024 yil uchun davlat buyudjeti loyihasida bu sohalarga katta e'tibor qaratildi. Xususan, bu yilda inson kapitalini rivojlantirish uchun 102,5 trillion so'm ajratildi.[4].

Davlatning mulk huquqi va iqtisodiy yondashuvlari daxlsizligi inson va shaxsning asosiy moliyaviy-huquqi sifatida shunchaki deklaratsiyasida emas, balki davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining etakchi tamoyili bo'lib, barcha sa'y-harakatlarni mulk himoya qobig'ini taminlashda barcha amaliy ishlarni oshkora amalga oshirilishi talab etadi. Davlat yoki xususiy mulk huquqi buzilishining oldini olishda jamiyat yoki jamoat manfaatlarini ta'minlashda xususiy huquq manfaatlarini muvozanatini tiklash uchun xizmat qiladi.

Inson kapitali – mehnat qiluvchi kishilarning aqliy, madaniy ahloq yig'indisi emas. Inson kapitali bu professionalizm, bilimga intilish, xorijiy tillarni mukammal bilish, axborot ta'minoti, temirdek mustahkam sog'liq, optimizm, tashabbus va mehnatsevarlik kabi tomonlar va xislatlardan yastalgan gulg'uncha hosilasidir.

Biz inson kapitalining quyidagi ta'rifini taklif etamiz:

Inson kapitali - ong, imkoniyat, bilish, borliq, sifat, miqdor, munosabat, egalik va xarakter inson kapitalining markaziy qismi hisoblanadi. Ularni shakllanish yoki shakllantirish xususiyatlarini xisobga olib, quyidagicha ajratib olish mumkin: insonning jismoniy kapitali, moliyaviy kapital, tabiiy kapital, intellektual kapital va ba'zi boshqa turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Inson kapitali – falsafiy nuqtai nazardan u o'zida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ongni tashkil qilib, iqtisodiy nuqtai nazardan esa, u o'ziga saxsni o'z ilm-zakovati uchun sarf etgan moliyaviy mablag' tushunchasi bo'lib, unda shaxsning:

- fundamental va amaliy bilimi, tajribasi, ko'nikmalari, tabiat va jamiyatdagi voqea, hodisa va jarayonlarga ilmiy-mantiqiy yondashish, ularning innovasion echimlarini topishdagi professionallik darajasi;
- intellektual mulki, moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatlari, inson va jamiyat taraqqiyotini kafolatlovchi kuch va vositalar majmuining mavjudligi;
- xorijiy tillarni mukammal bilishi;
- aqliy mehnati va yuksak innovasion tafakkuri, uning turmush darajasi va kasbiy kar'erasining oshishi, jamiyatdagi mavqei va o'rnini belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlari/nashrga tayyorlovchi X. Qodiriy. –T.: “Sharq”. 2014. –b. 880
2. Arastu. Kategorija Qadimgi grek yozuvida eramizdan avvalgi 323-335 yilari yozilgan.
3. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 476 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158 sonli Farmoni 2023 yil 11 -sentyabr.